

ABDULLA SHER IJODIDA MAVZU IFODASI**Sayyora Xaqnazarova***FarDU katta o 'qituvchisi*

Abdulla Sher asardan asarga, kitobdan kitobga unib-o'sib boradigan, mahorati oshib, qalami charxlanadigan so'z san'atkorlari sirasiga kiradi. Agar ijodiy sermahsullik bilan tobora kamol topib borayotgan mahoratni, yuksalayotgan badiiyatni nazarda tutsak, ijodkorning o'zbek adabiyoti ravnaqida tutgan o'rni va xizmatlari yanada oydinlashadi. Shoir lirik she'rlarini o'zbek poeziyasining eng sara namunalari sirasiga kiritasak, mubolag'a bo'lmaydi. Tarjimalari bevosita asliyatdan o'girilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Falsafiy-axloqiy asarlari yurtimizning barcha ilm maskanlarida darslik sifatida qo'llanilayotgani ham e'tirofning yorqin ko'rinishidir. Publitsistik maqolalari, dolzarb ijtimoiy mavzudagi risolalari bilan bugungi voqelik hodisalariga hozirjavob munosabat bildiradigan qalam sohibidir.

"Abdulla Sher she'rlaridagi o'ziga xoslik mazmunning favquloda yoxud mavzuning yangiligida ko'rinxmaydi. Aksincha, Abdulla ham asosan, boshqa shoirlar qatori Vatan haqida, mehnat to'g'risida, inson va uning hayotini kuylaydi. Biroq bular haqida shoir yangicha ohangda kuylaydi", deb yozganda O.Sharafiddinov haq edi"¹¹. Darhaqiqat, shoir qaysi mavzuga qo'l urmasin, u yangi ruh, o'zgacha ohangda kuylaydi va u o'z she'rlari orqali kitobxonning ma'naviy-estetik didini yuksaltirishga, unga ma'naviy ozuqa berishga intiladi. O'ziga ham o'zgalarga ham talabchan shoirning Ziyo.uz. saytida 2013 – yil 17 – martda e'lon qilingan "Ko'proq o'qish ruhingizni boyitadi" nomli maqolasida quyidagi jumlalar bor: "Men badiiy asar darajasiga ko'tarilmagan kitoblarni o'qishga maslahat bermasdim. Chunki bunday kitoblar o'quvchining badiiy-estetik didini pasaytiradi, uning badiiy asar haqidagi tasavvurini jo'nlashtiradi; o'quvchini obrazli fikrlashdan uzoqlashtiradi; adabiy tilni buzadi, til madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi; chala obrazlar, chala xarakterlar, chala badiiy haqiqat kitobxonning hayot haqidagi tushunchasini chalkashtiradi. Bundan tashqari, har bir badiiy asar shakliy mukammallik jihatidan ham go'zal bo'ladi, badiiy asar darajasiga ko'tarilmagan kitob ana shu go'zallikdan mahrum"¹². Faylasuf shoirning bu qarashlari tog'ri, badiiy jihatdan pishiq bo'limgan asarlar kitobxon tasavvur olamini sayyozlashtiradi, uning fikrlash doirasini chegaralab qo'yadi. Shoir o'z qarashlariga amal qilib, shaklan va mazmunan uyg'unlikdagi, insonni mushohadaga undovchi lirik she'rlar yaratadi.

"Yozuvchini hayajonga solgan, uni qalam tebratishga majbur qilgan hayotiy material "mavzu" deb ataladi. Mavzu, odatda, yozuvchi yoritmoqchi bo'lgan ijtimoiy yoki axloqiy

¹¹ Шарафиддинов О. Гўзаллик излаб. Шоирнинг баҳорий сози. – Тошкент: Адабиёт ва санъат. 1985.– 5.73.

¹² Абдулла Шер // Ўзбекистон санъати ва адабиёти газетаси. 2002. №16-Б.6.

muammo bilan birga tug‘iladi. Mavzu yozuvchi ongida va qalbida hali badiiy shakllantirishni talab qilib yotuvchi hayotiy masala va ijtimoiy-axloqiy masaladir”¹³.

Adabiyotshunosning bu nazariy qarashlarini Abdulla Sher tanlagen mavzular k o‘lami doirasida ko‘rib chiqamiz. Ijodkorning adabiy asarlari uchun asos qilib olingen fikr va maqsadlari uning ijod mahsuli mavzusidir. Mavzu asarda berib o‘tilgan hayotiy materiallardan iborat bo‘ladi va u asarda ifodalanayotgan hayotiy voqeliklar hisoblanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, mavzu asarning mazmuniga qarab tanlanadi. Mavzuni qanday tanlash har bir ijodkorning o‘ziga bog‘liq.

Abdulla Sher har bir yaratayotgan asarlari mavzusiga jiddiy e’tibor qaratadi. U davrning eng muhim muammolarini, hayotiy masalalarini asarlarining mavzusi sifatida tanlab oladi. U o‘z asarlarini badiiy didining yuksak maqomiga munosib bo‘lishi uchun intiladi. Uning ijodiga mansub asarlari, xususan, lirik she’rlari, badiiy tarji malari buning yaqqol dalilidir.

Vatan mavzusiga bag‘ishlangan she’rlarida u emotsionallik xususiyatini kuchaytirish maqsadida badiiy, tasviriy ifodaviy va tilning maxsus ifodaviy vositalaridan foydalanadi. Buni quyidagi she’r misolida ko‘rishamiz:

*Vatan! Bu – tarixim, jangim, san’atim,
Oppoq paxtamdagи bir ukpar yurak!
Vatan! Bu – do ‘stligim, shodlik, zahmatim,
Yurakka quyoshni chorlovchi istak!*¹⁴

Shoir satrlarda metaforani, ya’ni yopiq o‘xshatishni qo‘llaydi. Tarix, jang, san’at so‘zлari orqali Vatan tasvirini ifoda etadi, shoir metafora yordamida o‘xshagan narsani faraz qilish yo‘li bilan tasavvur qildiradi. Bir ukpar yurak – litota sanalib, Vatan timsolini badiiy kichraytirish orqali yurakka o‘xshatadi. Shoir Vatan timsolini hajmiga nisbatan o‘ta kichraytirib tasvirlaydi, ya’ni mubolag‘ani o‘ta kichraytirish usulini qo‘llaydi.

Vatan mavzusini ifodalagan she’rlar sirasiga shoirning “Vatan”, “Bu o‘lkaning”, “Buxoro”, “Oq paxtam”, “Samarqandni kashf etish”, “Alqov” kabi she’rlari kiradi. Ushbu she’rlarida badiiy-tasviriy va ifoda-tasviriy vositalaridan foydalanib, she’rlar mazmuniga originallik va jozibadorlik baxsh etadi. Vatanni ta’riflashda uning tabiatи, so‘lim go‘shalari, betakror manzaralarni stilistik, sintaktik figuralar, poetik ko‘chimlar yordamida yorqin gavdalantiradi.

Mavzu tanlash va uning badiiy ifodalash juda jiddiy masala hisoblanadi: “Adabiy asarning mavzusi muhim bo‘lishi shart. Shunga ko‘ra, yozuvchi mavzu tanlashga befarq qaray olmaydi. Mavzu tanlashda yozuvchining dunyoqarashi, ongliligi muhim rol o‘ynaydi. Zamonaning ilg‘or farzandi bo‘lgan yozuvchi doimo hayotning dolzarb

¹³ Иzzат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. Б.– 96.

¹⁴ Абдулла Шер. Танланган асрлар. Ватан. Шеърлар, достонлар. – Тошкент: Sharq, 2021. – Б.42.

masalalariga e'tibor beradi, shu haqida asar yozadi. Adabiyotimiz mavzu jihatdan benihoya boy adabiyot”¹⁵.

Adabiyotshunos T.Boboyevning ushbu nazariy fikrlari bevosita Abdulla Sherga taalluqli, chunki shoir mavzu tanlashga befarq bo‘lmadi, uning lirkasidagi mavzular ko‘lami rang-barangdir. Uning ijodida muhabbat mavzusi ham keng o‘rin olgan. Shoir muhabbat mavzusini yoritishda ham badiiy tasvir va ifoda vositalaridan unumli foydalanadi. Uning she’rlaridagi otashin, haroratlari, jo‘shqin muhabbat tuyg‘ulari kutilmagan tashbehlari, yangicha ohanglar, shakliy mukammalik bilan yo‘g‘rilgan:

“Birinchi muhabbat”, “Ilk muhabbat” deb,

Qo ‘shiqlar aytilur, she’rlar bitilur.

U goho sandiqdan chiqolmagan sep,

*Gohida faryodga aylangan g‘urur*¹⁶.

U goho sandiqdan chiqolmagan *sep* - poetik ko‘chimning mubolag‘a, giperbola vositasida muhabbatga bo‘lgan ta’rifni kuchaytiradi. Gohida faryodga aylangan g‘urur – jonlantirish, mubolag‘a orqali qahramon hissiyotini jonlantiradi va badiiy-estetik funksiyadorlikni oshiradi.

“Shoir ijodida muhabbat mavzusi ham keng o‘rin olgan. Uning bu mavzudagi she’rlarida voqeabandlik, yengil humor, lirk qahramon quvonchi va iztiroblarining samimiylashtirish katta e’tiborga molikdir”¹⁷. Darhaqiqat, shoir lirkasiga e’tibor qaratsak, uning ijodida muhabbat mavzusi keng va atroflicha yoritilganini guvohi bo‘lamiz. Shoir she’rlaridagi lirk qahramon hissiyotlarini ifodalashda poetik ko‘chimlarning jonlantirish, epitet, mubolag‘a, o‘xshatish kabi turlaridan foydalangan. Shoir har bir tanlagan mavzusini estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urinadi va asarlarida muayyan g‘oyani ilgari suradi.

¹⁵ Бобоев Т. Адабиётшуносликка асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.101.

¹⁶ Абдулла Шер. Биринчи қўшиқ. Севилмаган менинг севгилим. Лирик достон. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент: 2010. Б-8.

¹⁷ Зоҳидов В.Жаҳон бадиияти зарварақлари – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. Б.– 422.